



100070, Toshkent shahar, Sh. Rustaveli ko'chasi, 8A
Tel.: (998 71) 202 04 02 (102),
el. pochta.: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz

8A, Shota Rustaveli Street, Tashkent, 100070
phone: (998 71) 202 04 02 (102),
e-mail: info@anticorruption.uz, antikor@exat.uz

20.09.2022 y.
04-18/4282

O‘zbekiston Respublikasi
Gidrometeorologiya xizmati
markazi

O G O H L A N T I R I S H

Ochiqlikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son Farmonida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, shu jumladan ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan ma'lumotlarni Internet tarmog'iga joylashtirish (*e'lon qilish*) bo'yicha majburiyatlari hisobini yuritish vazifasi yuklatilgan.

Shunga muvofiq, Agentlik davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi masofaviy monitoring tartibida o'rganib bormoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmoni 9-bandida **Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni** rasmiy veb-saytga joylashtirishning (*e'lon qilish*) aniq tartibi belgilangan.

Unga ko'ra, 2022-yil 1-iyuldan boshlab Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar (*PF-6247-son Farmon 1-ilovasi bilan tasdiqlangan*) davlat organlari va tashkilotlari rasmiy veb-saytning **bosh sahifasida alohida bo'linga joylashtirilishi**, ular rasmiy veb-saytning boshqa sahifasiga (*veb-manzil*) joylashtirilgan taqdirda, e'lon qilinmagan deb hisoblanishi belgilangan.

Agentlik tomonidan **2022-yil 19-sentabr** holatiga o'tkazilgan masofaviy monitoring natijalariga ko'ra, **Gidrometeorologiya xizmati markazining** rasmiy veb-saytida (<http://hydromet.uz>) Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni e'lon qilish bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan tartibga rioya etilmay, ushbu toifadagi ma'lumotlar boshqa veb-manzilga joylashtirilganligi aniqlangan.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-154-son Farmonida belgilangan ochiqlikni ta’minlashga oid qonunchilik hujjatlari talablarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini qat’iy nazoratga olishingizni, shuningdek yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar yuzasidan **joriy yilning 29-sentabriga qadar** Agentlikka yozma axborot berishingiz so‘raladi.

Direktor o‘rinbosari



U.Tuxtasheva

*Ijrochi: B.Safarov
Tel: (71) 202-04-02(253)*